



№4/2026

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

ADPI
Ilmiy xabarnomasi

IJTIMOIY TARMOQLARDA AYOL QIYOFASI MASALASI ORQALI TALABALARNING MA'NAVIV-AXLOQIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

Eshonqulova Jumagul Abdumajidovna

Andijon davlat pedagogika insituti

Annotatsiya.

So'nggi yillarda ijtimoiy tarmoqlar shaxsiy fikr va muloqot vositasi sifatida muhim rol o'ynamoqda. Ayolning onlayn maydondagi qiyofasi madaniy stereotiplar va zamonaviy ifodalar orqali shakllanadi. Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlarda ayol qiyofasining qanday ifodalanishi, stereotiplar va zamonaviy yondashuvlarning o'zaro ta'siri o'rganildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ko'plab profil va postlarda tashqi ko'rinish an'anaviy stereotiplar asosida shakllangan bo'lsa, mazmun va kommunikatsiyada zamonaviy ifodalar kengayadi. Ushbu jarayon ayollarga o'z fikrini, qiziqishlarini va ijodiy yondashuvini namoyon qilish imkonini beradi. Tadqiqot natijalari ijtimoiy tarmoqlar orqali gender stereotiplari va madaniy qadriyatlarini yangicha tushunish imkoniyatini taqdim etadi.

Kalit so'zlar:

ayol qiyofasi, ijtimoiy tarmoqlar, madaniy stereotiplar, zamonaviy ifodalar, gender.

Аннотация.

В последние годы социальные сети играют важную роль как средство выражения личного мнения и общения. Образ женщины в онлайн-пространстве формируется через культурные стереотипы и современные формы самовыражения. В данной статье исследуется, как проявляется образ женщины в социальных сетях, а также взаимодействие стереотипов и современных подходов. Результаты исследования показывают, что во многих профилях и постах внешний вид формируется на основе традиционных стереотипов, тогда как содержание и коммуникация демонстрируют современные формы самовыражения. Этот процесс предоставляет женщинам возможность проявлять свои взгляды, интересы и творческий подход. Результаты исследования позволяют по-новому понимать гендерные стереотипы и культурные ценности через призму социальных сетей.

Ключевые слова:

образ женщины, социальные сети, культурные стереотипы, современные формы самовыражения, гендер.

Abstract.

In recent years, social media has played a significant role as a tool for personal expression and communication. The image of women in the online space is shaped through cultural stereotypes and modern forms of expression. This article examines how the image of women is represented on social media and the interaction between stereotypes and contemporary approaches. The findings indicate that in many profiles and posts, appearance is shaped by traditional stereotypes, while content and communication reflect modern forms of expression. This process allows women to convey their views, interests, and creative approaches. The study results provide a new perspective on understanding gender stereotypes and cultural values through social media.

Keywords:

image of women, social media, cultural stereotypes, modern forms of expression, gender.

Kirish. Zamonaviy jamiyatda raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlarning jadal rivojlanishi shaxsning ijtimoiylashuv jarayoniga, uning ma'naviy-axloqiy qarashlari shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarda namoyon bo'layotgan ayol qiyofasi talabalarning dunyoqarashi, axloqiy me'yorlarni idrok etishi va gender munosabatlariga bo'lgan yondashuvini belgilovchi muhim omillardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Virtual makonda yaratilayotgan ayol obrazi ko'pincha real hayotdan uzilgan, sun'iy ideal sifatida talqin qilinib, bu holat yoshlar ongida noto'g'ri stereotiplarning shakllanishiga sabab bo'lishi mumkin. Ijtimoiy tarmoqlarda ayol qiyofasining asosan tashqi ko'rinish,

jozibadorlik va ommaboplik mezonlari asosida baholanishi ayol shaxsining ma'naviy, intellektual va ijtimoiy ahamiyatini ikkinchi darajaga tushirib qo'yish xavfini keltirib chiqaradi. Bu esa talabalarda ayolga nisbatan yuzaki munosabatning shakllanishiga, axloqiy qadriyatlarning zaiflashishiga olib kelishi mumkin. Shu bois mazkur muammoni pedagogik va ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan o'rganish hamda ta'lim jarayonida maqsadli ravishda muhokama qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Talabalarining ma'naviy-axloqiy tafakkurini rivojlantirishda ijtimoiy tarmoqlardagi ayol qiyofasini tahlil qilish muhim tarbiyaviy vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bunda talabalarga virtual makonda tarqatilayotgan ayol obrazlarini tanqidiy tahlil qilish, ularning mazmun-mohiyatini anglash, real hayot bilan qiyoslash ko'nikmalarini shakllantirish zarur. Aynan tanqidiy tafakkur asosida yondashuv talabalarni tayyor stereotiplarni so'zsiz qabul qilishdan voz kechishga, axborotni saralash va baholash madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarda ayol qiyofasi masalasini muhokama qilish orqali talabalarda axloqiy mas'uliyat hissini kuchaytirish mumkin. Virtual makonda ayol sha'ni, qadr-qimmatini va shaxsiy hayotiga hurmat bilan yondashish zarurati talabalar ongiga singdirilsa, bu ularning real hayotdagi ijtimoiy munosabatlarida ham o'z aksini topadi. Ayniqsa, talaba yigitlarda ayol shaxsiga nisbatan hurmat, talaba qizlarda esa o'zini anglash, o'z qadrini bilish va ma'naviy barqarorlik kabi sifatlarning shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ta'lim jarayonida ijtimoiy tarmoqlardan ma'naviy-ma'rifiy maqsadlarda foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish ham muhim ahamiyatga ega. Ayolning ijtimoiy faolligi, ilm-fan, madaniyat va jamiyat rivojida o'zini aks ettirilgan ijobiy obrazlarni tahlil qilish orqali talabalar ongida sog'lom axloqiy qarashlarni shakllantirish mumkin. Bunday yondashuv ayol qiyofasini faqat estetik mezonlar bilan emas, balki uning ijtimoiy mas'uliyati, intellektual salohiyati va ma'naviy yetukligi bilan baholashga undaydi. Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlarda ayol qiyofasi bilan bog'liq masalalarni muhokama qilish talabalarining media savodxonligini oshirishga xizmat qiladi. Media savodxonlik esa axborot xurujlari, manipulyativ kontent va axloqiy me'yorlarga zid materiallarga nisbatan immunitetni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda talabalar nafaqat passiv iste'molchi, balki mas'uliyatli foydalanuvchi sifatida shakllanadi. Shuningdek, so'nggi o'n yilliklarda ijtimoiy tarmoqlar shaxsiy va jamoaviy fikrlarni ifodalash, o'zaro muloqot va ijtimoiy aloqalarni o'rnatishning asosiy maydoniga aylangan. Ayolning onlayn maydondagi qiyofasi nafaqat tashqi ko'rinish, balki madaniy stereotiplar va zamonaviy ifodalar orqali ham shakllanadi. Madaniy stereotiplar ko'pincha ayolning jamiyatdagi an'anaviy roli, xulq-atvori va ijtimoiy majburiyatlari bilan bog'liq qabul qilingan tasavvurlarni aks ettiradi. Shu bilan birga, zamonaviy ifodalar ayollarga mustaqil va ijodiy tarzda o'zini namoyon qilish imkoniyatini beradi.

Ayol qiyofasining onlayn maydondagi shakllanishi ijtimoiy va psixologik jihatdan muhimdir, chunki u foydalanuvchilarning o'zini namoyon qilish usullari, jamiyat qabul qiladigan qadriyatlar va gender stereotiplari bilan bevosita bog'liqdir. Ushbu maqolaning maqsadi – ijtimoiy tarmoqlarda ayol qiyofasini shakllantiruvchi madaniy stereotiplar va

zamonaviy ifodalarni aniqlash, ularning o'zaro ta'sirini tahlil qilish hamda bu jarayonning ijtimoiy ahamiyatini ochib berishdir.

Nazariy tahlil. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy tarmoqlar ayol obrazini shakllantirishda ikki qirrali rol o'ynaydi. Bir tomondan, ular madaniy stereotiplarni mustahkamlaydi: foydalanuvchilar ko'pincha jamiyat tomonidan ma'qullangan go'zallik, nafislik va oilaviy qadriyatlar me'yorlariga rioya qilishga intiladi (Goffman, 1979; Wolf, 1991). Boshqa tomondan, zamonaviy ifodalar foydalanuvchilarga o'z kasbiy yutuqlari, shaxsiy qiziqishlari va ijtimoiy faoliyatlarini ochiq ifodalash imkonini beradi (Marwick, 2013; Chou & Edge, 2012).

Onlayn maydonda ayol qiyofasini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ko'plab foydalanuvchilar tashqi ko'rinish orqali an'anaviy qadriyatlarni aks ettirsa, postlar va rasmiylar orqali o'zining shaxsiy qarashlari va ijodiy yondashuvini namoyon qiladi (Tiggemann & Slater, 2014). Shu tariqa, ijtimoiy tarmoqlar ayolning onlayn maydondagi qiyofasini murakkab va ko'p qirrali qiladi.

Metodologiya. Ushbu tadqiqot aralash metodlarga asoslanib, ya'ni kvantitativ va sifat jihatdan tahliliy yondashuvlar uyg'unlashgan holda o'tkazildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi ijtimoiy tarmoqlarda ayol qiyofasini shakllantiruvchi madaniy stereotiplar va zamonaviy ifodalarni aniqlash, ularning o'zaro ta'sirini o'rganish edi. Tadqiqot uchun ma'lumot manbai sifatida Facebook, Instagram va Telegram platformalaridagi 500 nafar ayol foydalanuvchining profil postlari, selfi rasmiylari va status yozuvlari tanlandi. Respondentlar 18 dan 35 yoshgacha bo'lgan, turli ijtimoiy va madaniy qatlamlarni ifodalaydigan shaxslar bo'lib, ushbu yosh guruhi zamonaviy ijtimoiy tarmoqlardan faol foydalanadi va o'zini onlayn maydonda keng namoyon qiladi.

Shuningdek, tadqiqot doirasida 20 nafar respondent bilan chuqurlashtirilgan intervyular o'tkazildi. Intervyular onlayn maydondagi o'zini namoyon qilish usullari, madaniy stereotiplarga bo'lgan munosabatlari va zamonaviy ifodalarni tanlash motivlarini aniqlashga qaratildi. Intervyu davomida yig'ilgan ma'lumotlar audio yozuv orqali saqlanib, keyinchalik yozma shaklga o'tkazildi va tahlilga tayyorlandi.

Kvantitativ tahlilning asosi kontent tahlilidan iborat bo'ldi. Har bir post va rasm madaniy stereotiplar hamda zamonaviy ifodalar asosida kodlandi. Madaniy stereotiplar kategoriyasiga go'zallik, nafislik va oilaviy qadriyatlarni aks ettiruvchi elementlar kiritildi, zamonaviy ifodalar kategoriyasiga esa kasbiy yutuqlar, shaxsiy qiziqishlar va ijtimoiy faollikni ko'rsatadigan elementlar ajratildi. Shu usul orqali foydalanuvchilar orasida stereotiplar va zamonaviy ifodalar taqsimoti aniqlanib, foiz hisobida ifodalandi.

Intervyu materiallari sifat jihatdan tematik tahlil asosida o'rganildi. Transkriptlar orqali respondentlarning onlayn maydondagi tashqi ko'rinishga urg'u berish sabablari, stereotipik qiyofani saqlash motivlari, zamonaviy ifodalarni tanlash usullari va onlayn qiyofa bilan shaxsiy qarashlar o'rtasidagi uyg'unlik aniqlandi. Tematik tahlil natijalari kvantitativ ma'lumotlar bilan solishtirilib, ayollarning onlayn qiyofani shakllantirishdagi shaxsiy yondashuvlari va madaniy stereotiplar bilan bog'liq hissiyotlari ilmiy tahlilga kiritildi.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, u aralash metodlarni qo'llash orqali onlayn ayol qiyofasining murakkab va ko'p qirrali xarakterini aniqlash imkonini berdi. Kontent tahlili orqali obyektiv statistik natijalar aniqlangan bo'lsa, intervyular orqali sub'ektiv tajribalar va motivlar

yoritildi. Natijalar bir-biri bilan solishtirildi va stereotiplar bilan zamonaviy ifodalar o'rtasidagi bog'liqlik va farqlar aniqlandi, bu esa tadqiqotning ilmiy ahamiyatini oshirdi.

Natijalar. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, ko'plab profillarda tashqi ko'rinish madaniy stereotiplar asosida shakllangan. Foydalanuvchilarning 62% profillari go'zallik, nafislik va oilaviy qadriyatlarni aks ettirdi. Shu bilan birga, respondentlarning 48% profillari zamonaviy ifodalarni – kasbiy yutuqlar, shaxsiy qiziqishlar va ijtimoiy faolliklarni – namoyon qildi.

Ko'p hollarda, tashqi qiyofa va mazmun uyg'unlashgan: tashqi ko'rinish stereotiplarni saqlab turgan bo'lsa, postlar va rasmiylar orqali ayol o'zining ijodiy yondashuvini ifodalaydi. Bu natijalar ijtimoiy tarmoqlarda ayol qiyofasining murakkab va ko'p qirrali ekanligini ko'rsatadi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy tarmoqlar ayol qiyofasini shakllantirishda ikki qirrali rol o'ynaydi. Stereotiplar jamiyat qabul qilgan qadriyatlarni saqlashga xizmat qilsa, zamonaviy ifodalar shaxsiy erkinlik va ijodiy yondashuvni namoyon qilish imkonini beradi. Shu tariqa, ayol onlayn maydonda o'zining tashqi va mazmuniy jihatdan murakkab qiyofasini yaratadi.

Bu jarayon ijtimoiy va psixologik jihatdan muhim: u ayollarga jamiyat qadriyatlarini saqlash bilan birga, o'z fikrini va ijodiy yondashuvini erkin ifodalash imkonini beradi. Natijalar avvalgi tadqiqotlar bilan mos keladi va ijtimoiy tarmoqlar orqali gender stereotiplari va madaniy qadriyatlarni yangicha tushunishga yordam beradi.

Xulosa. Xulosa sifatida aytish mumkinki, ijtimoiy tarmoqlarda ayol qiyofasi masalasini ta'lim-tarbiya jarayoni bilan uzviy bog'lab o'rganish talabalarning ma'naviy-axloqiy tafakkurini rivojlantirish uchun muhim pedagogik imkoniyatlarni yaratadi. Mazkur imkoniyatlardan tizimli va ilmiy asosda foydalanish zamonaviy ta'limning muhim vazifalaridan biri bo'lib, bu jarayon yosh avlodning axloqiy yetuk, ijtimoiy mas'uliyatli va tanqidiy fikrlovchi shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarda ayol qiyofasi madaniy stereotiplar va zamonaviy ifodalar o'rtasidagi murakkab va dinamik jarayondir. Tashqi ko'rinish orqali jamiyat qadriyatlari saqlanadi, postlar va rasmiylar orqali esa shaxsiy fikr va ijodiy yondashuv namoyon bo'ladi. Shu tariqa, ijtimoiy tarmoqlar ayollarga o'z fikrini erkin ifodalash va gender stereotiplarini qayta ko'rib chiqish imkoniyatini beradi. Ushbu jarayon zamonaviy jamiyatda ayolning ijtimoiy roli va shaxsiy namoyonini yangicha tushunishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Chou, H.-T. G., & Edge, N. (2012). *"They are happier and having better lives than I am": The impact of using Facebook on perceptions of others' lives*. *Cyberpsychology, Behavior, and Social Networking*, 15(2), 117–121.
2. Goffman, E. (1979). *Gender Advertisements*. London: Macmillan.
3. Marwick, A. (2013). *Status Update: Celebrity, Publicity, and Branding in the Social Media Age*. Yale University Press.
4. Tiggemann, M., & Slater, A. (2014). *NetGirls: The Internet, Facebook, and body image concern in adolescent girls*. *International Journal of Eating Disorders*, 47(6), 630–643.
5. Wolf, N. (1991). *The Beauty Myth: How Images of Beauty Are Used Against Women*. New York: William Morrow.

Эгамназарова З.К.

Совершенствование коммуникативной компетенции на занятиях по русскому языку в вузе (в нефилологических направлениях) посредством использования современных сатирических текстов 74 77

To'xtamurodov Azizbek Azimjon o'g'li

Talabalar xizmatlarini tashkil etishda registrator ofisining ergonomik boshqaruv modeli 78 81

Novshadbekova Dilnura Zafarbekj qizi

Tarbiya fanini integrativ yondashuv asosida o'qitish orqali talabalarning kreativ va intellektual kompetensiyalarini rivojlantirish 82 87

Ergasheva Muhayyoxon G'anijonovna

Oliy ta'lim tizimida talabalar o'quv faoliyatini pedagogik improvizatsiya asosida rivojlantirishning determinantlari va strategiyalari 88 91

Muqumjonova (Sodiqova) Moxinur Farxodjon qizi

Bo'lajak texnologiya o'qituvchilarida kreativ kompetensiyani rivojlantirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar 92 94

Kodirov Muxammadxusanbek Abdizohid o'g'li

Oliy ta'lim muassasalarida basketbol mashg'ulotlarini tashkil etishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish 95 100

Shomurotov Asqar Abdullayevich

Talabalarning jismoniy tarbiya jarayonida aylanma mashg'ulotlardan foydalanishning samarali usullari 101 105

Ismonov Xurshidbek Baxtiyorovich, Toshpulatova Maftuna Sherali qizi

Geomertik shakllar asosida Natyurmort kompozitsiyasini qurish 106 109

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLAR

Fozilov Botirjon Zakirovich

Global ta'lim migratsiyasi: ijtimoiy-falsafiy tahlil va strategik rivojlanish tendensiyalari 110 116

Abduraximova Shaxnoza Raxmonjonovna

O'quv faoliyatida stressni yengishning samarali psixologik texnikalari 117 122

Erkinboyeva Zilola Fayzillo qizi

Mahmudxo'ja behbudiyning jadidchilik g'oyalari va ma'rifiy islohotchilik faoliyatining asosiy yo'nalishlari 123 125

Eshonqulova Jumagul Abdumajidovna

Ijtimoiy tarmoqlarda ayol qiyofasi masalasi orqali talabalarning ma'naviy-axloqiy tafakkurini rivojlantirish imkoniyatlari 126 129

Mamajonov Ulug'bek Maxammattolibovich

Musiqqa san'ati va inson qalbining uyg'unligi 130 133

Ahmadjonova Shahnozaxon Yارقinovna

Talabalar o'rtasida huquqbuzarlikni oldini olish 134 136

Keldiyeva Shaxnozaxon Shuxratovna

Bo'lajak tarixchi talabalarni tayyorlashda reflektiv yondashuv: jadid maktablarining ilmiy-metodik merosidan foydalanish imkoniyatlari 137 140

